

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

«TASDIQLAYMAN»

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti
rektori Sh.Sirojiddinov**



30-oktabr 2025-yil

**10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi ixtisosligi
bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD)ga kirish imtihoni**

D A S T U R I

Toshkent – 2025

Ushbu dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi (2025-yil 28-oktabrdagi 4-sonli bayonnoma).

Tuzuvchilar:

f.f.d., professor	Z. Xolmanova
--------------------------	---------------------

f.f.f.d. (PhD)	B.Elov
-----------------------	---------------

f.f.d. professor	Sh.Hamroyeva
-------------------------	---------------------

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmonlari mazmunidan kelib chiqqan holda til masalalari tadqiqini tubdan yangilash, ona tilini milliy qadriyat sifatida targ‘ib etish tizimini takomillashtirish, o‘zbek tilining nazariy va amaliy muammolarini hal qiladigan yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash, filologiya sohasida yuqori darajadagi ilmiy salohiyatni shakllantirish millat taraqqiyoti uchun dolzarbdir. Ushbu dastur oliy ta’lim muassasalarida bakalavriat ta’lim yo‘nalishi hamda magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘qitiladigan tilshunoslik fanlari o‘quv mazmuniga asoslangan holda tuzildi.

Fan va ta’lim integratsiyasi natijasida Respublika Prezidenti tomonidan belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda mutaxassislar tayyorlashning sifatini oshirish, oliy ta’limdan keyingi faoliyatni davom ettirish, tilshunoslikning dolzarb muammolarini hal qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

10.00.11 – Tilshunoslik nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi ixtisosligi uchun tuzilgan dasturda “Tilshunoslik nazariyasi”, “O‘zbek tili tarixi”, “Psixolingvistika”, “Pragmalingvistika”, “Lingvokulturologiya”, “Kompyuter lingvistikasi” kabi fanlar doirasidagi masalalar o‘z ifodasini topgan.

ASOSIY QISM

Tilning ijtimoiy vazifalari. Tilning jamiyatdagi o‘rni. Til va jamiyat munosabati. Tilning jamiyatdagi ko‘rinishlari.

Til va tafakkur munosabati. Til birliklari va mantiqiy tushunchalarning o‘zaro munosabati. Tafakkur – tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishi. Tildagi so‘zlar, so‘z birikmalari va jumlalarning tafakkur mahsuli ekanligi. Til qurilishi qonunlari va tafakkur qonunlari (birliklari).

Til – tafakkur – nutq munosabati. Til va nutqiy faoliyat. Nutq faoliyati, og‘zaki va yozma nutq. Lisoniy va nutqiy birliklar. Til birliklarining alohida tizim sifatida o‘zaro mutanosibligi.

Lisoniy paradigma va lisoniy munosabatlarning asosiy turlari. Lisoniy tasnif asoslari. Til birliklari o‘rtasidagi paradigmatic munosabatlar. Til birliklari o‘rtasidagi iyerarxik munosabatlar. Til birliklari aranjirovkasi.

Tilning tarixiy taraqqiyoti va o‘zgaruvchanligi. Tillarning o‘zaro ta’siri va rivojlanishi. Sinxronik va diaxronik o‘zgarishlar. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik – tildagi tarixiy-fonetik o‘zgarishlarni o‘rganuvchi soha sifatida. Qardosh tillar

(slavyan, german, roman tillari; turkiy tillar)dagi tarixiy fonetik o'zgarishlar. Qiyosiy fonetikaning vazifalari.

Dunyo tillari tavsifi va tillar tasnifi. Dunyo tillari. Qadimiy tillar. O'lik tillar. Tillarning geneologik va tipologik tasniflari. Til oilalari. Til guruhlari. Turkiy tillar oilasi. Qo'shimchali va qo'shimchasiz tillar. Agglyutinatív, flektiv tillar.

Yozuv – madaniy taraqqiyot mahsuli. Yozuvning shakllanishi va rivojlanishi. Yozuv turlari. Piktografik, ideografik, logografik va fonografik yozuvlar. O'rta Osiyo xalqlarining yozuv tarixi. Yozuvning hozirgi ko'rinishlari.

Tilshunoslik maktablari. Tilga oid ta'limotlar evolyutsiyasi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishi. Chog'ishtirma tilshunoslik. Lingvistik tipologiya.

Qadimgi hind tilshunosligi. Qadimgi hind tilshunosligining asosiy xususiyatlari. Vedalar tili. Vedalar va prakrit orasidagi farqlar. "Ashtadxyan" asari. Panini grammatikasining sof empirik va tasviriy xususiyatlari.

Qadimgi yunon tilshunosligi. Qadimgi yunon tilshunosligining asosiy xususiyatlari. Analogistlar va anomalistlar bahsi. Stoiklar ta'limoti. Grammatikaning mantiqdan ajratilishi. Yunon tilshunosligining grammatik davri. Ellinizm davri til maktabi ta'limoti.

Qadimgi Rim tilshunosligi. Qadimgi Rim tilshunosligining asosiy xususiyatlari. Analogistlar va anomalistlar qarashlarining davom ettirilishi. Qadimgi Rim tilshunosligi vakillarining qarashlari. "Analogiya haqida", "Lotin tili haqida", "Grammatika san'ati", "Fe'lning ma'nosi", "Grammatika san'ati haqida ta'limot" asarlarining lingvistik mohiyati.

Qadimgi Xitoy tilshunosligi. Qadimgi Xitoy tilshunosligining asosiy xususiyatlari. Xitoy leksikografiyasi. Xitoy tilshunosligida fonetik-prosodemiya hodisasining ishlab chiqilishi. Xitoy grammatikasi asoschilari.

O'rta asrlar tilshunosligi. O'rta asrlar tilshunosligi. O'rta asr tilshunoslarining nazariy qarashlari. Yevropa tilshunosligi. Arab tilshunosligi. Arab leksikograflari. "Kitob ul-ayn", "Kitob ul-avomil", "Al-kitob" asarlari mohiyati.

O'rta Osiyoda tilshunoslikning shakllanishi. Mahmud Koshg'ariy – turkiy tillar qiyosiy grammatikasining asoschisi. "Devonu lug'otit-turk"ning tillar tasnifi, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik taraqqiyotidagi o'rni. Qomusiy olimlarning tilshunoslikka oid qarashlari. Grammatikaga doir manbalardagi lingvistik qarashlar. O'rta asr tilshunosligi va bugungi kun muammolari. Alisher Navoiyning chog'ishtirma tilshunoslikka asos solishi. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarining tilshunoslik nazariyasini o'rganishdagi ahamiyati.

Yevropa uyg'onish davri tilshunosligi. Yevropa uyg'onish davri tilshunosligi. Umumiy ratsional grammatikaning yaratilishi. "Pol-Royal" grammatikasi (K.Lanslo va A.Arno). Grammatika bilan mantiq o'rtasidagi aloqa. Slavyan tilshunosligi.

XIX va XX asr tilshunosligi. Umumiy tilshunoslik va qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi. Komparativistika. Hind-yevropa tillarini qiyosiy-tarixiy o'rganishning to'rt davri. V. fon Gumboldt va umumiy tilshunoslik. Naturalizm. Psixologizm. Til sotsiologiyasi. Areal lingvistika. Strukturalizm.

Strukturalizm maktablari. "Yosh grammatiklar" maktabi. "Yosh grammatiklar" maktabining lingvistik qarashlari. Qozon lingvistik maktabi. Moskva lingvistik maktabi.

Struktur tilshunoslik. Struktur tilshunoslik asoschilari va namoyandalari. Tilshunoslik maktablari ta'limotlarining asosiy mohiyati. Sossyur ta'limoti va strukturalizm.

Praga lingvistik maktabi. Neolingvistikaning shakllanishi. Glossematika maktabi ta'limoti. Deskriptiv lingvistikaning shakllanishi. Umumiy (universal) grammatika maktabi. F. de Sossyurning "Umumiy tilshunoslik kursi" asari. Til va nutq. Sinxroniya va diaxroniya. Fonologiyaning shakllanishi. Kopengagen tilshunoslik maktabi. Me'yoriy holatlardan chekinish, uzus va nutq faoliyati (akti)ning absolyutlashtirilishi. Neolingvistika.

XXI asr jahon tilshunosligi. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari. Sotsiolingvistika. Kompyuter lingvistikasi. Psixolingvistika. Neyrolingvistika. Pragmalingvistika. Kognitiv tilshunoslik. Lingvokulturologiya. Amaliy tilshunoslik. Amaliy tilshunoslik muammolari.

Psixolingvistikaning obyekti va predmeti. Psixolingvistikaning o'ziga xos xususiyatlari: inson omili, vaziyat omili, eksperiment tamoyili. Tushunchaviy-terminologik apparati. Psixolingvistikada nutqiy faoliyat talqini. Psixolingvistika va tilshunoslik. Individ va kommunikatsiya. Psixolingvistikaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Psixolingvistikaning shakllanishi va rivojlanish tarixi.

Amerika psixolingvistik maktabi: bixeviorizm, neobixeviorizm.

Transformatsion-generativ grammatika maktablari. Noam Xomskiyning transformatsion-generativ grammatikasi. Transformatsion modelning birinchi varianti, uning umumiy strukturasi va xususiyatlari. Transformatsion modelning tabiiy til ifodalarini avtomatik sxemalarga solishdagi ahamiyati.

Nutq ontogenezi. Ontolingvistika. Tabiatdagi jonli mavjudotlar muloqoti. Maugli bolalar. Tilni o'zlashtirish (nutq ontogenezi) haqidagi qarashlar. Til qobiliyati. Til bilimi va tilni qo'llash o'rtasidagi aloqa. Bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari.

Nutqiy faoliyat va uning turlari. "Nutqiy faoliyat" tushunchasi. Nutqiy faoliyatning tuzilishi. Nutqiy faoliyatning psixologik mexanizmi. Nutqiy faoliyat turlari. Verbal va noverbal tafakkur. Nutqiy faoliyatning predmetlik (psixologik) mohiyati. Nutqiy faoliyatda til va nutq funksiyalari.

Nutq idroki (matnni tushunish). Matnni qabul qilish (matnni tushunish). Matn persepsiyasi. Nutqiy yoki jismoniy javob qaytarish. Murojaatni e'tiborga olish. Xabar-1ning xabar-2 ga mos kelmasligi. Matnni yaratish va tushunishda samaradorlik, tejamkorlik va ishonchlilik tamoyillari.

Matnni psixolingvistik yondashuv asosida o'rganish. Mantning lingvistik mohiyatini ochishda til vositalarining o'rni. Matnning psixolingvistik tahlilida individ til va tafakkur faoliyatining o'rni. Matnning kommunikatsiya akti shakli ekanligi. "Muallif (matn tuzuvchi)", "matn" va "retsipiyent" tushunchalari. Nutqni qabul qilishning uch asosiy darajasi.

Lingvokulturologiya. Til va madaniyat. So'zning milliy-madaniy xususiyatlari. Noverbal nutqning milliy-madaniy xususiyatlari. Lakunalar. Nutqiy muoamala. Bilingvizm va uning turlari. Xorijliklar nutqi. Madaniy shok. Lingvistik shok. Madaniyatlararo muloqot.

Pragmalingvistika. Semantika va pragmatika munosabati. Nutqiy akt nazariyasi. Pragmatik intensiya va nutqiy akt turlari. Pragmatik to'siq muammosi. Pragmatik mazmunni shakllantiruvchi omillar. Matnning denotativ strukturasi elementlari (propozitsiya, referentsiya, relevantlik va inferentsiya). Matnning implikatura birliklari. Pragmatik presuppozitsiya va tagma'no. Presuppozitsiya turlari. Nutqiy muloqot xulqi. Deyksis nazariyasi. Deyksisning pragmatik mohiyati va o'rganilishi. Deyksisni ifodalovchi til birliklari. Deyksis turlari. Pragmatik konnotatsiya va baho munosabati. Konnotatsiyani hosil qiluvchi lingvistik va ekstralingvistik vositalar. Konnotatsiya turlari. Matn va diskurs nazariyasi. Matn tadqiqiga pragmatik yondashuv.

Kompyuter lingvistikasi ilovalari va vazifalari. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va texnologiyasi. Til grammatikasining NLPdagi o'rni va ahamiyati. NLP vositalari va ularning turlari. Kompyuter lingvistikasining amaliy yo'nalishlari. Kompyuter ilovalari va ularning lingvistik ta'minoti. Avtomatik tahrirlovchi dasturlar va ularning ishlash prinsipi. Avtomatik tahlil turlari (analizatorlar, sintezatorlar). Chatbotlar va ularni yaratish texnologiyalari. Mashina tarjimasini: vazifalari, muammolari va yechimlari. Qidiruv tizimlari, text mining va ularning vazifalari.

Tabiiy tilni qayta ishlash va modellashtirish. O'zbek tilini qayta ishlash masalalari. Til va til birliklarini modellashtirish tizimlari. Qoidalariga asoslangan usullar. Statistik usullar. Mashinali o'qitish (machine learning) asoslari. Sun'iy intellekt va NLP aloqadorligi.

Matnni qayta ishlash bosqichlari. Fonetik-fonologik tahlil texnologiyasi. Grafematik tahlil texnologiyasi. Morfologik tahlil: so'zshakl, asos, lemma, token tushunchalari. Morfologik sintez va POS tagging. Sintaktik tahlil algoritmlari (parsing). Semantik va pragmatik tahlil prinsiplari.

Lingvistik resurslar va leksikografiya. Lingvistik bazalarni shakllantirish usullari. Lingvistik bazalar: lug'at maqolalari, so'z birikmalar bazasi. WordNet va uning o'zbekcha modifikatsiyasi. Leksikografiya va kompyuter

leksikografiyasi. Tezaurus, elektron va onlayn lug‘atlar. Ontologiyalar va morfem lug‘atlar.

Korpus lingvistikasi. Til korpuslari: tushunchasi, turlari va ahamiyati. Mualliflik, aralash, dinamik, parallel va ta’limiy korpuslar. Korpus annotatsiyasi: teg, lemma, token. Ko‘p tilli korpuslar va ularning imkoniyatlari. Milliy korpus: mavjud tizimlar tahlili va o‘zbek tilining milliy korpusi. Uznatcorpora tizimi va lingvistik annotatsiyalash

Lingvistik bazalarni shakllantirish usullari. Matnni tozalash (cleaning) va dataset tayyorlash. Lingvistik teglash: grammatik va semantik teglar. So‘zshakllar bazasi. Uslubiy xoslanganlik bazasi. Annotatsiyalash jarayonida NLP vositalarining qo‘llanilishi.

Sintaktik va semantik tahlil. Sintaktik tahlil usullari. Matn semantikasi va valentlik nazariyasi. Semantik tahlilning lug‘at manbalari. Semantik tahlilni amalga oshirish usullari. Matnlarning sentiment tahlili. Anafora va koreferensiyani hal qilish usullari (Xobs algoritmi).

Tasniflash, modellashtirish va klasterlash. Tasniflash va klasterlash jarayonlari. TF-IDF modellari. Hujjatlarni tematik modellashtirish. Hujjatlarni tasniflash algoritmlari. N-gramma modellari va tokenizatsiya. Morfologik omonimiya masalalari.

Matnning semantik va statistik tahlili. So‘z semantikasi va kontekstual ma’no. So‘zning uslubiy bahosi. Sarkazm va sentiment tahlilning murakkab holatlari. Qoidalarga asoslangan va mashinali o‘qitishga asoslangan sentiment tahlil. NER (nomlangan obyektlarni aniqlash) usullari. Havolalarni aniqlash va so‘z chastotalarini hisoblash.

Vektorli modellar va tematik tahlil. Matnning vektor tasviri va vektorli fazo tushunchasi. Zipf qonuni. Korpus asosida hujjatlarning tematik modellashtirish usuli. So‘zlarning vektor tasvirlari va TF-IDF modellari asosida ishlash. Hujjatlarning teskari chastotalariga asoslangan qidiruv tizimlari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Ilmiy-metodologik adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni.

Ilmiy nazariy adabiyotlar

3. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент, 2009.
4. Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание. – Тошкент, 2004.
5. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2010.
6. Алефиренко Н.А. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. – М: Флинта, Наука, 2010.
7. Белянин В.П. Психолингвистика. Учебное пособие. – М.: Флинта, 2008.
8. Бушуй А.М., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. – Тошкент: Фан, 2007.
9. Дадабоев Ҳ. Тилшунослик назарияси ва методологияси. – Тошкент, 2004.
10. Ирискулов И. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, 2009.
11. Йўлдошев И. ва б. Мутахассисликка (тилшуносликка) кириш. – Тошкент, 2018.
12. Красных, В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология // В.В. Красных. – М., 2002. – 284 с.
13. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990.
14. Mengliyev B., Ergasheva G., Hamroyeva Sh. Tilshunoslik asoslari (darslik). – Toshkent, 2025.
15. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. – Андижон, 2006.
16. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 232 б.
17. Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси. – Тошкент: Фан, 2008.
18. Нурмонов А. Лингвистик тадқиқ методологияси ва методлари. – Тошкент, 2011.
19. Пўлатов И., Тўхтасинова О. Тилларни типологик ўрганиш. – Тошкент, 2009.
20. Пўлатов А.К., Муҳамедова С. Компьютер лингвистикаси (ўқув қўлланма). – Тошкент, 2009.
21. Пўлатов А. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент: Академнашр, 2011.
22. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2013.
23. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
24. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. – Тошкент, 2007.
25. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, 2006.
26. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2013.

27. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya / Darslik. – T., 2019. – 245 b.
28. Usmanova Sh. Psixolingvistika. / Darslik. – T., 2019.
29. Холманова З. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, 2007.
30. Xolmanova Z., Saidaxmedova O., Nurullayeva O. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi. – T., 2018. – 94 b.
31. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2020.
32. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари.-тошкент: ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. –176 б.
33. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002.

Elektron manbalar

<http://natlib.uz> –Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti

<http://ensiklopediya.uz> – O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti

<http://ziyouz.uz> – O‘zbek va jahon adabiyoti portal

<http://ziyonet.uz> – O‘zbekiston milliy ta’lim portali

<http://kitob.uz/> – Respublika bolalar kutubxonasi

<http://referatlar.uz> –Referatlar, testlar, kitoblar va mediata’lim sayti

<http://book.uz> – Elektron adabiyotlar kutubxonasi

<http://arxiv.uz> – Referatlar arxivi

<http://txt.uz> – Elektron kutubxona

<https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences>

Baholash mezonlari

Kirish sinovi og‘zaki ravishda o‘tkazilishi belgilangan bo‘lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Talabgorning har bir savolga bergan javobi quyidagicha baholanadi:

Berilgan javoblarning mazmuni	Har bir savol uchun qo‘yiladigan ball
Savolga to‘liq javob berilsa; nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo‘l qo‘yilmasa; javoblarning mazmuni mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilsa;	86–100 ball

misollar bilan asoslansa; [ulosani to‘g‘ri shakllantirilsa; fikr erkin bayon etilsa –	
Savolning mohiyatini anglangan bo‘lsa, javobda mazmun yoritilsa, fikr misollar orqali dalillansa, tasavvur hosil qilingan bo‘lsa, qisqacha xulosa berilsa, fikrlarni sodda ko‘rinishda bayon etilsa –	71–85 ball
Savol mohiyatini anglangan bo‘lsa, ammo javobda savol mazmuni yoritilmasa, fikr qisqa shaklda ifodalansa, misollar bilan asoslanilmasa, xulosa to‘liq bo‘lmasa –	55–70 ball
Savolning ayrim qirralarigina yoritilsa yoki umuman savolga javob berilmasa, savol bo‘yicha aniq tasavvur hosil qilinmagan hollarda –	0–54 ball qo‘yiladi.

NAMUNAVIY SAVOLLAR

1. Til nazariyasi va umumiy tilshunoslik

1. Tilning ijtimoiy mohiyati. Til va jamiyat munosabati.
2. Til integratsiyasi va differentsiatsiyasi tushunchalarini izohlang.
3. Til va tafakkur o‘rtasidagi dialektik munosabat.
4. Lisoniy va nutqiy birliklar tavsifi.
5. Til birliklariaro paradigmatic, sintagmatic va iyerarxik munosabatlar.
6. Til – tafakkur – nutq uchligining zamonaviy lingvistik tadqiqotlardagi ifodasi.
7. Til tizimining struktur xususiyatlari va ularning nutqiy namoyon bo‘lish shakllarini ochib bering.
8. Til va mantiq qonunlarining o‘zaro bog‘liqligi.
9. Tilshunoslikda sinxronik va diaxronik tahlil.
10. Tillar tasnifining genealogik va tipologik prinsiplarini tavsiflang.
11. Agglyutivativ, flektiv va izolyativ tillarning asosiy belgilari.
12. Tillar o‘rtasidagi interferensiya hodisasi va uning til taraqqiyotiga ta’siri.
13. Tilning jamiyatdagi funksional tizim sifatidagi ko‘rinishlarini sharhlang.
14. Tildagi o‘zgaruvchanlik va barqarorlik qonuniyatlarini izohlang.
15. Lingvistik tipologiya. Tillarning tipologik toifalarga bo‘linishi.
16. Til birliklarining semantik va formal jihatdan o‘zaro aloqasini tushuntiring.
17. Fonema, morfema, leksema, sintagma va diskurs tushunchalarining tizimiy munosabatini tahlil qiling.
18. Tilshunoslikda struktur va funksional yondashuvning farqlarini izohlang.
19. Lisoniy paradigma va lingvistik tasnif asoslarini yoritib bering.
20. Til tizimida uzus va me’yor tushunchalarini qiyosiy tahlil qiling.

21. Tildagi variantlik hodisasi va uning sotsiolingvistik jihatlarini tahlil qiling.
22. Markaziy Osiyoda yozuv tizimlarining rivojlanishini izohlang.
23. Til birliklari o'rtasidagi analogiya va anomal holatlarning til tizimidagi o'rni qanday?
24. Lisoniy tizimda barqarorlik va dinamiklik o'rtasidagi nisbatni izohlang.
25. Tilning kognitiv, kommunikativ va estetik funksiyalarini solishtirib tahlil qiling.

2. Tarixiy va qiyosiy tilshunoslik

1. Qadimgi Hind tilshunosligining asosiy xususiyatlari. Panini ta'limoti.
2. "Ashtadxyay" grammatikasining empirik mohiyatini izohlang.
3. Qadimgi yunon tilshunosligida analogistlar va anomalistlar bahsining lingvistik ahamiyatini tahlil qiling.
4. Stoiklar ta'limotining grammatikaga ta'sirini yoritib bering.
5. Qadimgi Rim tilshunosligi vakillarining asarlari va ularning tilshunoslik tarixidagi o'rni haqida fikr bering.
6. Qadimgi Xitoy tilshunosligining fonetik-prosodik yondashuvini tahlil qiling.
7. O'rta asr arab tilshunosligining asosiy manbalari va ularning ilmiy ahamiyatini yoritib bering.
8. "Kitob ul-ayn" va "Al-kitob" asarlarining leksikografik va grammatik mohiyatini tahlil qiling.
9. O'rta Osiyo tilshunosligida Mahmud Koshg'ariyning o'rni va "Devonu lug'otit-turk"ning ilmiy ahamiyatini izohlang.
10. Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari chog'ishtirma tilshunoslikda qanday rol o'ynagan?
11. Uyg'onish davrida "Pol-Royal" grammatikasining ratsional mohiyatini tahlil qiling.
12. XIX asrda vujudga kelgan komparativistik yo'nalishning nazariy asoslarini izohlang.
13. V. fon Gumboldtning til falsafasidagi qarashlarini tahlil qiling.
14. "Yosh grammatiklar" maktabining asosiy prinsiplari nimalardan iborat?
15. Moskva va Qozon lingvistik maktablarining umumiy va farqli jihatlarini taqqoslang.
16. F. de Sossyurning "Umumiy tilshunoslik kursi" asarining lingvistik tafakkurga ta'sirini tahlil qiling.
17. Strukturalizm maktablarining shakllanishi va til nazariyasiga qo'shgan hissasini izohlang.
18. Deskriptiv lingvistikaning metodologik asoslarini yoritib bering.

19. Neolingvistika maktabining tilni o'rganishdagi o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling.
20. Areal lingvistika va qiyosiy-tarixiy yondashuvni taqqoslab yozing.
21. Tilshunoslik tarixida fonologiyaning shakllanish bosqichlarini tahlil qiling.
22. Umumiy grammatika g'oyasining zamonaviy talqinini izohlang.
23. Tilshunoslikda naturalizm va psixologizm oqimlarining farqlarini tushuntiring.
24. Verner qonuni nima va u tarixiy fonetika nuqtai nazaridan qanday izohlanadi?
25. Areal tilshunoslik deganda nima tushuniladi va u qiyosiy-tarixiy yondashuvdan nimasi bilan farq qiladi?
26. Turli tillarning qarindoshligi (genetik aloqadorligi)ni aniqlashda tilshunoslar qanday dalil va mezonlarga tayanadilar?
27. Qadimiy tillar va o'lik tillar tushunchalarini farqlab bering.
28. Turkiy tillarning tarixiy rivojlanishida kuzatilgan biror fonetik o'zgarishlar.
29. Chig'atoy tili deganda nima tushuniladi va u o'zbek tili tarixida qanday o'rin tutadi?
30. Tilshunoslikda qiyosiy metod nima va uning asosiy bosqichlari.
31. Yevropa strukturalizmi va Amerika deskriptivizmining asosiy o'xshashlik va tafovutlarini yozing.
32. XIX asrda Hind-Yevropa tillarini qiyosiy o'rganish qanday bosqichlarda rivojlandi (to'rt davrini izohlang)?

3. Psixolingvistika, pragmalingvistika va lingvokulturologiya

1. Psixolingvistikaning predmeti va obyekti haqida tahliliy fikr bering.
2. Nutqiy faoliyatning psixologik mexanizmini izohlang.
3. Tilni o'zlashtirish (ontogenez) jarayonida biologik va ijtimoiy omillar o'rni qanday?
4. Maugli bolalar hodisasi orqali til qobiliyatining tabiati haqida yozing.
5. Psixolingvistika va neyrolingvistika o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiling.
6. Amerika psixolingvistik maktabining bixevioristik yondashuvi haqida fikr bering.
7. Transformatsion-generativ grammatika nazariyasining psixolingvistik asoslarini izohlang.
8. Noam Xomskiyning "competence" va "performance" tushunchalarini tahlil qiling.
9. Nutq idrokining psixolingvistik bosqichlarini tahlil qiling.

10. Matnni qabul qilish va tushunish jarayonidagi perseptiv mexanizmlarni izohlang.
11. Pragmatik mazmunni shakllantiruvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni tahlil qiling.
12. Nutqiy akt nazariyasi va uning asoschilari haqida yozing.
13. Presuppozitsiya va implikatura tushunchalarini farqlang.
14. Deyksis turlarini va ularning kommunikativ ahamiyatini tahlil qiling.
15. Pragmatik konnotatsiya va baho munosabatini tahlil qiling.
16. Matnning denotativ strukturasi elementlarini izohlang.
17. Matnni psixolingvistik tahlil qilish metodlarini bayon qiling.
18. Bilingvizm turlari va ularning kognitiv oqibatlarini tahlil qiling.
19. Lakuna va lingvistik shok hodisalari haqida yozing.
20. Madaniyatlararo muloqotda tilning o'rnini va ahamiyatini tushuntiring.
21. Lingvokulturologiyada til va madaniyat o'zaro qanday aloqada?
22. Noverbal nutqning milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil qiling.
23. Nutqiy muloqot xulqining pragmatik aspektlarini izohlang.
24. Matn va diskurs o'rtasidagi farqni izohlang.
25. Matn tadqiqiga pragmatik yondashuvning nazariy asoslarini tahlil qiling.

4. Kompyuter lingvistikasi va NLP

1. Kompyuter lingvistikasining asosiy yo'nalishlari va amaliy ahamiyatini tahlil qiling.
2. NLP (Natural Language Processing) bosqichlarini tahlil qiling.
3. Matnni tozalash (cleaning) va dataset tayyorlash jarayonini izohlang.
4. Tokenizatsiya va lemma aniqlash jarayonini tushuntiring.
5. Morfologik tahlil va POS tagging jarayonining asoslarini bayon qiling.
6. Sintaktik tahlil algoritmlarining (parsing) turlari.
7. Semantik tahlil va valentlik nazariyasi o'rtasidagi bog'liqlikni izohlang.
8. Pragmatik tahlilning NLPdagi o'rnini qanday?
9. Sentiment tahlil usullarini (qoidalarga asoslangan va ML asosida) taqqoslang.
10. NER (Nomlangan obyektlarni aniqlash) algoritmlari haqida yozing.
11. Mashina tarjimasining muammolari va yechimlarini tahlil qiling.
12. Chatbot texnologiyalarining ishlash prinsiplari va til modeli asoslarini izohlang.
13. Qidiruv tizimlari va text mining jarayonlarining lingvistik asoslarini tushuntiring.
14. Lingvistik resurslar (lug'atlar, tezauruslar, WordNet) ning NLPdagi o'rnini haqida yozing.
15. TF-IDF modelining matematik mohiyatini izohlang.

- 16.N-gram modellari va ularning til modellashtirishdagi ahamiyatini tahlil qiling.
- 17.Vektorli fazo va soʻzlarning vektor tasviri haqida yozing.
- 18.Word2Vec va FastText modellarining farqli jihatlarini tahlil qiling.
- 19.Ontologiya va tezaurus oʻrtasidagi farqni izohlang.
- 20.Korpus lingvistikasi va kompyuter lingvistikasi oʻzaro qanday aloqada?
- 21.Annotatsiyalash jarayonida teglar tizimini yaratish prinsiplari haqida yozing.
- 22.Korpus turlari va ularning amaliy qoʻllanish doiralarini tahlil qiling.
- 23.Uznatcorpora tizimi va uning lingvistik annotatsiyasi haqida yozing.
- 24.Lingvistik bazalarni shakllantirish texnologiyasini izohlang.
- 25.Matnni semantik va statistik tahlil qilish metodlarini tahlil qiling.
- 26.Sarkazm va konnotativ maʼnolarni aniqlashdagi NLP muammolarini tushuntiring.
- 27.Hujjatlarni tematik modellashtirish usullarini izohlang.
- 28.Tasniflash va klasterlash algoritmlarining NLPdagi roli haqida yozing.
- 29.Morfologik omonimiya muammosining yechimlari haqida tahlil bering.
- 30.Anafora va koreferensiyani hal qilish usullari haqida yozing.
- 31.Zipf qonuni va uni korpus tahliliga tatbiq qilishni tushuntiring.
- 32.Mashinali oʻqitish (machine learning) asoslarini NLP kontekstida bayon qiling.
- 33.Sunʼiy intellekt va til modellashtirish oʻrtasidagi bogʻliqlikni tahlil qiling.
- 34.NLPda semantik tahlilni amalga oshirishda qanday resurslar zarur?
- 35.Korpus asosidagi tadqiqotlarda statistik yondashuvlarning afzalliklarini yozing.
- 36.Til grammatikasining NLP jarayonlaridagi ahamiyati.
- 37.NLPda qoʻllaniladigan asosiy vositalar (dasturiy asboblari) va ularning turlari.
- 38.Qidiruv tizimlarida matnni qayta ishlash texnologiyalarining ahamiyati.
- 39.Tabiiy tilni qayta ishlash jarayonining qanday asosiy bosqichlari.
- 40.NLPda fonetik-fonologik tahlil.
- 41.Soʻz turkumini aniqlash (Part-of-Speech tagging) va u tilni avtomatik tahlil qilish.
- 42.Anafora hamda koreferensiyani avtomatik aniqlash.
- 43.Hujjatlarning tematik modellashtirilishi (topic modeling).
- 44.Matnlarni tasniflash (klassifikatsiya qilish) va klasterlash.
- 45.N-gram modellari.
- 46.Morfologik omonimiya va uni bartaraf qilish usullari.
- 47.Zipf qonuni til birliklari uchun qanday statistik qonuniyatni ifodalaydi?
- 48.Soʻzning vektorli tasviri (word embedding).

49. Nomlangan obyektlarni aniqlash (NER) nima va uni amalga oshirish usullari.

50. Sun'iy neyron tarmoqlarga asoslangan modellar tabiiy tilni qayta ishlash.

5. Amaliy tilshunoslik va lingvistik resurslar

1. Amaliy tilshunoslikning tadqiqot obyekti va predmeti haqida izoh bering.
2. Korpus lingvistikasining amaliy qo'llanilish sohalarini tahlil qiling.
3. Annotatsiya turlari (morfologik, sintaktik, semantik) va ularning maqsadini tushuntiring.
4. Elektron lug'at yaratishning lingvistik va texnik prinsiplari haqida yozing.
5. Leksikografiya va kompyuter leksikografiyasi o'rtasidagi farqni tahlil qiling.
6. WordNet tuzilmasi va uning o'zbekcha modifikatsiyasi haqida yozing.
7. Lingvistik bazalarni shakllantirishda ontologik modeldan foydalanishning afzalliklarini tushuntiring.
8. Korpus ma'lumotlarida teglash va lemmatizatsiya muammolarini izohlang.
9. Annotatsiyalashda avtomatik va yarim avtomatik yondashuvlarning farqlarini tahlil qiling.
10. So'zshakllar bazasi va ularning amaliy lingvistik tizimlardagi o'rni haqida yozing.
11. Uslubiy xoslanganlik bazasini yaratishning prinsiplari haqida fikr bering.
12. Lingvistik bazalarda sinonim, antonim, giperonim munosabatlarini aks ettirish usullarini tushuntiring.
13. Elektron tezaurus va uning ilmiy-texnik ahamiyatini tahlil qiling.
14. Leksikografik maqolani avtomatik shakllantirish usullarini izohlang.
15. Korpus ma'lumotlarida ko'p tillilik (multilingualism) masalasini tahlil qiling.
16. Parallel korpuslar yaratish texnologiyasini tushuntiring.
17. Annotatsiya sifatini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar haqida yozing.
18. Lingvistik resurslarning NLPdagi qo'llanilishini izohlang.
19. Amaliy tilshunoslikda tilni modellashtirishning dolzarb yo'nalishlarini tahlil qiling.
20. Lingvistik resurslar yaratishda Big Data texnologiyalarining o'rni haqida yozing.

6. Zamonaviy yo'nalishlar

1. XXI asr tilshunosligining yangi yo'nalishlari.

2. Sotsiolingvistika va psixolingvistika o'rtasidagi chegaraviy masalalarni tahlil qiling.
3. Kognitiv lingvistikaning asosiy tushunchalari haqida yozing.
4. Neyrolingvistika fanining shakllanishi va tadqiqot obyekti haqida yozing.
5. Kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt integratsiyasining istiqbollarini tahlil qiling.
6. Lingvokulturologiyaning zamonaviy tadqiq yo'nalishlari haqida yozing.
7. Lingvistik modellashtirish va tizim yondashuvining afzalliklarini izohlang.
8. Korpus asosida tilni o'rganishning yangi metodologik tamoyillarini bayon qiling.
9. O'zbek tilini raqamlashtirishdagi lingvistik va texnologik muammolarni tahlil qiling.
10. Uznatcorpora tizimining ilmiy va amaliy imkoniyatlarini baholang.
11. Multimodal kommunikatsiya va lingvistik tahlil o'rtasidagi aloq... davom:
12. Multimodal kommunikatsiya va lingvistik tahlil o'rtasidagi aloqadorlikni tahlil qiling.
13. Sun'iy neyron tarmoqlarning til modellarini yaratishdagi roli haqida yozing.
14. Kognitiv semantika va prototip nazariyasining o'zaro bog'liqligini izohlang.
15. Lingvistik antropologiya va etnolingvistika o'rtasidagi umumiylik va farqlarni tahlil qiling.
16. O'zbek tilini sun'iy intellekt tizimlariga integratsiya qilishning asosiy bosqichlarini bayon qiling.
17. Korpus asosida til o'rganishning sotsiopsixologik jihatlarini tahlil qiling.
18. Zamonaviy tilshunoslikda multimodal ma'lumotlarni tahlil qilish usullarini izohlang.
19. NLP va kognitiv tilshunoslik o'rtasidagi integratsion yondashuvlarning ilmiy istiqbolini tahlil qiling.
20. O'zbek tilshunosligida kompyuter lingvistikasini rivojlantirish istiqbollari haqida yozing.
21. Tilshunoslikning interdisiplinar paradigmasi va XXI asr ilmiy yo'nalishlari o'rtasidagi uzviy aloqani tahlil qiling.